


QORAQALPOG'ISTON RESPUBLIKASIDAGI KORXONA VA TASHKIOTLAR DEMOGRAFIYASI BO'YICHA MA'LUMOT

2021- yil 1- aprel holatiga ko'ra
(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)



Tadbirkorlik subyektlari iqtisodiyotni rivojlantirish, aholi bandligi va daromadlarini oshirishda muhim omildir. Ushbu soha vakillarini har tomonlama qo'llab-quvvatlash maqsadida, oxirgi yillarda Prezidentimizning ko'plab farmon va qarorlari qabul qilindi.

Jumladan, tadbirkorlik faoliyatini davlat ro'yxatidan o'tkazish, turli ruxsatnomalar olish va boshqa ko'plab xizmatlar tartib-qoidalari soddalashtirildi. Bu borada qulaylik yaratish uchun Davlat xizmatlari agentligi va uning joylardagi markazlari tashkil etildi. Tadbirkorlik subyektlarining huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish bo'yicha vakil (Biznes-ombudsman) devoni tashkil qilindi.


Barcha hududlarda tadbirkorlar murojaatlarini qabul qilib, hal etishga ko'maklashadigan Bosh vazir qabulxonalari tashkil etildi. Vazirlar Mahkamasi huzurida Tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirishni qo'llab-quvvatlash davlat jamg'armasi faoliyati yo'lga qo'yildi. Tijorat banklari tomonidan tadbirkorlarga ajratilayotgan kreditlar hajmi oshdi.

Oxirgi yillarda hukumatimiz tomonidan tadbirkorlik subyektlarining faoliyatini yanada rivojlantirish va barqaror faoliyat ko'rsatishini ta'minlash maqsadida yaratib berilayotgan shart-sharoitlar va qulayliklar natijasida faoliyat ko'rsatayotgan hamda yangi tashkil etilayotgan korxona va tashkilotlar soni yildan-yilga sezilarli ravishda oshib bormoqda.

Korxona va tashkilotlar to'g'risidagi mazkur ma'lumotlar O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi huzuridagi Davlat xizmatlari agentligi ma'lumotlar bazasi asosida, 2021- yil 1- aprel holatiga ko'ra (fermer va dehqon xo'jaliklarisiz) shakllantirildi.

Ro'yxatdan o'tgan korxona va tashkilotlar soni

(1- aprel holatiga ko'ra, birlikda)



Mamlakatimizda qulay ishbilarmonlik muhitini yaratish va tadbirkorlikni jadal rivojlantirish borasida qator ijobiy o'zgarishlar amalga oshirilmoqda. O'z ornida, tadbirkorlik subyektlarini davlat ro'yxatidan o'tkazish va hisobga qo'yish borasida ham qonunchilikda muhim qarorlar qabul qilinib, davlat ro'yxatidan o'tkazish va hisobga qo'yishni avtomatlashtirilgan tizimi bosqichma-bosqich ishlab chiqilib, amaliyotga tadbiq qilinmoqda. Bu esa, aholi hamda xorijiy investorlarning o'z shaxsiy biznesini yo'nga qo'yish va rivojlantirish uchun muhim omil bo'lib xizmat qilmoqda.

Faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni

(1- aprel holatiga ko'ra, birlikda va o'tgan yilga nisbatan o'sish sur'ati bilan)



Faoliyat ko'rsatayotgan tijorat korxonalarini soni


(tashkiliy-huquqiy shakli bo'yicha
2021-yil 1-aprel holatiga ko'ra, birlikda)

4



Faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni


(iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha 1-aprel holatiga ko'ra, birlikda)



■ 2020- y. ■ 2021- y.


Yangi tashkil etilgan korxona va tashkilotlar soni

(iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha, 2021-yil yanvar-mart oylarida)



Yangi tashkil etilgan korxona va tashkilotlar soni

(yanvar-mart oylarida, birlikda)




Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar


(1- aprel holatiga ko'ra, birlikda)

6


Jami faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlarning umumiyl soni
o'tgan yilning shu davriga nisbatan **42,4** foizga oshdi



■ Kichik tadbirkorlik subyektlari ■ Mikrofirmalar ■ Kichik korxonalar



■ Dehqonchilik, chovachilik,
ovchilik va bu sohalarda xizmat
ko'rsatish
■ O'rmon xo'jaligi
■ Baliq xo'jaligi



Sanoat yo'nalishida faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni (2021- yil 1- aprel holatiga ko'ra, birlikda)

7



■ Kichik tadbirkorlik subyektlari ■ Mikrofirmalar ■ Kichik korxonalar



2021- yil 1- aprel holatiga ko'ra, sanoat korxonalarini va tashkilotlari soni 2 962 tani tashkil etib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 21,2 % ga oshdi.


Jami sanoat korxonalarini va tashkilotlari ko'payishining asosiy omili - (o'tgan yilning mos davriga nisbatan), ishlab chiqarish (qayta ishlash) sanoatida - 21,9 % ga (jami sanoatdagi ulushi 90,8 %), tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash - 10,2 % ga (jami sanoatdagi ulushi 6,2 %), elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash - 27,3 % ga (jami sanoatdagi ulushi 1,4 %) va suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni utilizatsiya qilishning 24,3 % ga (jami sanoatdagi ulushi 1,5 %) o'sishidir.

Qurilish faoliyati bilan shug'ullanayotgan korxona va tashkilotlar soni

(1- aprel holatiga ko'ra, birlikda)




Jami faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlarning umumiyligi o'tgan yilning shu davriga nisbatan **7,7 foizga oshdi**




Kichik tadbirkorlik subyektlari soni




7,8
foizga oshdi



Mikrofirmalar



Kichik korxonalar



Qurilish faoliyati bilan shug'ullanayotgan korxona va tashkilotlar soni, yillar kesimida (birlikda)




- ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari
- fuqarolik obyektlarini qurish
- bino va inshootlar qurish


2021- yil 1- aprel holatiga ko'ra, qurilish sohasida korxona va tashkilotlar soni 2 350 tani tashkil etib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 7,7 % ga oshdi.

Jami qurilish sohasidagi korxona va tashkilotlar soni ko'payishining asosiy omili bu - bino va inshootlar qurishda - o'tgan yilga nisbatan 3,6 % ga (jami qurilishdagi ulushi 60,6 %), fuqarolik obyektlarini qurish - 18,0 % ga (jami qurilishdagi ulushi 9,2 %), ixtisoslashtirilgan qurilish ishlarinining 13,4 % ga (jami qurilishdagi ulushi 30,2 %) o'sishidir.

Savdo sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni (1-aprel holatiga ko'ra, birlikda)



Kichik tadbirkorlik subyektlari soni



Mikrofirmalar




Kichik korxonalar



Savdo sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni, yillar kesimida (1-aprel holatiga ko'ra, birlikda)

2021-yil 1-aprel holatiga ko'ra, savdo sohasidagi korxona va tashkilotlar soni 5 843 tani tashkil etib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 32,9 % ga oshdi.

Jami savdo korxona va tashkilotlari soni ko'payishining asosiy omili - avtomobil va mototsikllar savdosidan tashqari chakana savdoda o'tgan yilga nisbatan - 40,6 % ga (jami savdodagi ulushi 71,8 %), avtomobil va mototsikllar savdosidan tashqari ulgurji savdoda o'tgan yilga nisbatan - 9,7 % ga (jami savdodagi ulushi 20,2 %), avtomobil va mototsikllarning ulgurji va chakana savdosi va ularni ta'mirlashning o'tgan yilga nisbatan - 38,8 % ga (jami savdodagi ulushi 7,9 %) o'sishidir.



- Avtomobil va mototsikllarning ulgurji va chakana savdosi va ularni ta'mirlash
- ▲ Avtomobil va mototsikllar savdosidan tashqari ulgurji savdo
- ▲ Avtomobil va mototsikllarning tashqari chakana savdo

- Sog'liqni saqlash sohasidagi faoliyat

389



- Yashash uchun joy bilan ta'minlangan holda parvarishlash

11



- Yashash uchun joy bilan ta'minlanmagan holda ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish


9



Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni



Jami faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlarning umumiyligi soni o'tgan yilning shu davriga nisbatan 9,9 foizga oshdi



Kichik tadbirkorlik subyektlari soni




15,1
foizga oshdi



Mikrofirmalar



Kichik korxonalar



Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni (2021- yil 1- aprel holatiga ko'ra, birlikda)

11



Jami faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlarning umumiy soni o'tgan yilning shu davriga nisbatan **113,9** foizga oshdi




Kichik tadbirkorlik subyektlari soni



13,8
foizga oshdi



Mikrofirmalar



Kichik korxonalar



Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni (2021- yil 1- aprel holatiga ko'ra, birlikda)



92

yashash bo'yicha xizmatlar



1225


Oziq-ovqat mahsulotlari va ichimliklar yetkazish bo'yicha xizmatlar

2021-yil 1- aprel holatiga ko'ra, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasidagi korxona va tashkilotlar soni 1 317 tani tashkil etib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 13,9 % ga oshdi.

Jami yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasidagi korxona va tashkilotlar soni ko'payishining asosiy omili – oziq-ovqat va ichimliklar yetkazish bo'yicha xizmatlar – 14,2 % ga (jami yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasidagi ulushi 93,0 %), yashash bo'yicha xizmatlarning - 10,8 % ga (jami yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasidagi ulushi 7,0 %) o'sishidir.

Kichik tadbirkorlik subyektlari soni

(2021- yil 1- aprel holatiga ko'ra, birlikda)




Faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxona va mikrofirmalar soni

(iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha 1- aprel holatiga ko'ra, birlikda)



Oilaviy korxonalar soni

(1- aprel holatiga ko'ra, birlikda)



Tashkiliy-huquqiy shakli bo'yicha ro'yxatdan o'tgan oilaviy korxonalar soni 2021- yilning 1- aprel holatiga ko'ra 1 830 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan 645 ga yoki 54,4 % ga oshganligini ko'rish mumkin.

Faoliyat ko'rsatayotgan oilaviy korxonalar soni 1 685 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan 554 ga yoki 49,0 % ga oshganligini ko'rish mumkin.

2021- yilning yanvar-mart oylarida yangi tashkil etilgan oilaviy korxonalar soni 145 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan 27 taga yoki 20,9 % ga oshganligini ko'rish mumkin.


Mas'uliyati cheklangan jamiyatlar soni

(1- aprel holatiga ko'ra, birlikda)

Tashkiliy huquqiy shakli bo'yicha ro'yxatdan o'tgan mas'uliyati cheklangan jamiyatlar soni 2021- yilning 1- aprel holatiga ko'ra 14 291 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan 3 085 ga yoki 27,5 % ga oshganligini ko'rish mumkin.

Faoliyat ko'rsatayotgan mas'uliyati cheklangan jamiyatlar soni 13 555 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan 2 840 taga yoki 26,5 % ga oshganligini ko'rish mumkin.

2021- yilning yanvar-mart oylarida yangi tashkil etilgan mas'uliyati cheklangan jamiyatlar soni 1 021 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan 321 taga yoki 45,8 % ga oshganligini ko'rish mumkin.



Xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalarning davlatlar kesimida soni


(2021- yil 1- aprel holatiga ko'ra, birlikda)

14



Xorijiy kapital ishtirokidagi korxona va tashkilotlar soni

(2021- yil 1- aprel holatiga ko'ra, birlikda)




Ro'yxatdan o'tgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxona va tashkilotlar soni 2021- yil 1- aprel holatiga ko'ra 171 tani tashkil etib, ulardan 168 tasi yoki 98,2 % faoliyat ko'rsatmoqda. Bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan olganda 8 taga yoki 5,0 % ga oshganligini ko'rish mumkin.

2021- yilning yanvar-mart oylarida 8 ta xorijiy kapital ishtirokidagi korxona va tashkilotlar yangi tashkil etildi.

Tumanlar kesimida faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni

(1- aprel holatiga ko'ra, birlikda)

15



**Hududlar kesimida xorijiy kapital ishtirokidagi
faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar soni**
(2021-yil 1-aprel holatiga ko'ra, birlikda)

16

	Jami	<i>shundan:</i>	
		qo'shma korxona	xorijiy korxona
Qoraqalpog'iston Respublikasi	168	97	71
tumanlar:			
Amudaryo	6	3	3
Beruniy	10	3	7
Bo'zatov	2	1	1
Qorao'zak	10	7	3
Kegeyli	6	4	2
Qo'ng'iroq	6	4	2
Qonliko'l	7	4	3
Mo'ynoq	32	23	9
Nukus	10	7	3
Taxiatosh	10	2	8
Taxtako'pir	5	3	2
To'rtko'l	5	4	1
Xo'jayli	4	1	3
Chimboy	5	3	2
Shumanay	5	2	3
Ellikqal'a	4	3	1
Nukus sh.	41	23	18

Xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalarning asosiy qismi Nukus shahrida 41 ta (umumiyligi miqdorida ulushi 24,4 %), Mo'ynoq 32 ta (19,0 %), Qorao'zak, Taxiatosh, Nukus tumani va Beruniy 10 tadan (5,9 %), Qonliko'l tumanida 7 tani (4,2 %) tashkil etadi.

Ro'yxatdan o'tgan korxona va tashkilotlarning hududlar bo'yicha soni

(2021- yil 1- aprel holatiga ko'ra, birlikda)

17




2021- yil 1- aprel holatiga ko'ra, ro'yxatdan o'tgan korxona va tashkilotlar tumanlar kesimida taqsimlanganda ularning ulushi Nukus shahri (28,3 %), To'rtko'l (10,3 %), Beruniy (8,4 %), Amudaryo (7,3 %), Ellikqal'a (6,2 %), Qo'ng'irot (5,7 %), Xo'jayli (5,0 %), Nukus (4,6 %), Chimboy (4,0 %), Taxiatosh (3,2 %), Qorao'zak va Kegeylida (2,9 %), Qanliko'l, Mo'ynoq va Shumanay (2,6 %), Taxtako'pir (2,0 %) va Bo'zatov (1,4 %) tumanlari hissalariga to'g'ri keladi.

Yangi tashkil etilgan korxona va tashkilotlarning hududlar bo'yicha soni

(2021- yil yanvar- mart oylarida, birlikda)


2021- yilning yanvar-mart oylarida yangi tashkil etilgan korxona va tashkilotlar tumanlar kesimida taqsimlanganda, ularning soni Nukus shahrida (25,0 %), Beruniy (9,1 %), To'rtko'l (8,6 %), Amudaryo (8,0 %), Ellikqal'a (6,9 %), Nukus (6,2 %), Xo'jayli (5,9 %), Qo'ng'irot (4,4 %), Chimboy (4,2 %), Kegeyli (3,9 %), Bo'zatov (3,5 %), Taxiatosh va Qonliko'l (2,9 %), Shumanay va Mo'ynoq (2,6 %), Qorao'zak (2,0 %), Taxtako'pir (1,3 %) tumanlari ulushiga tegishli.



Faoliyat ko'rsatayotgan oilaviy korxonalarining hududlar kesimidagi soni


(2021- yil 1- aprel holatiga ko'ra, birlikda)

18



Faoliyat ko'rsatayotgan mas'uliyati cheklangan jamiyatlarning hududlar kesimidagi soni

(2021- yil 1- aprel holatiga ko'ra, birlikda)



2021- yil 1- aprel holatiga ko'ra, faoliyat ko'rsatayotgan mas'uliyati cheklangan jamiyatlar tumanlar kesimida taqsimlanganda ularning ulushi, Nukus shahrida (33,7 %), To'rtko'l (10,9 %), Beruniy (7,4 %), Amudaryo (6,7 %), Nukus va Qo'ng'irot (5,4 %), Xo'jayli (5,0 %), Ellikqal'a va Chimboy (4,0 %), Qorao'zak (3,1 %), Kegeyli va Mo'ynoq (3,0 %), Taxiatosh (2,4 %), Bo'zatov (1,7 %), Shumanay va Qonliko'l (1,6 %), Taxtako'pir (1,1 %) tumanlari hissasiga tegishli.

Statistik ko'rsatkichlarga izohlar

Korxonalar va tashkilotlarning yagona davlat registri – axborot-ma'lumotnoma tusidagi, vaqtiga vaqt bilan yangilab boriladigan ma'lumotlardan iborat bo'lgan avtomatlashtirilgan tizim hisoblanadi hamda yagona klassifikatsiyalar tizimi asosida korxona va tashkilotlarning davlat hisobini va ularni identifikasiyalashtirishni ta'minlaydi.

Ro'yxatga olingan korxona va tashkilotlar – ro'yxatdan o'tkazish organlari tomonidan belgilangan tartibda davlat ro'yxatidan o'tkazilgan hamda yuridik shaxslarning davlat reestrinda mavjud bo'lgan yuridik shaxslardir (faoliyati tugatilgan yuridik shaxslardan tashqari).

Faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar – ro'yxatdan o'tkazish organlari tomonidan belgilangan tartibda davlat ro'yxatidan o'tkazilgan hamda davlat statistika organlariga moliya-xo'jalik faoliyatini amalga oshirmayotganligi yoki tugatish jarayonida ekanligi to'g'risidagi ma'lumot kelib tushmagan yuridik shaxslardir.

Yangi tashkil etilgan korxona va tashkilotlar – ro'yxatdan o'tkazish organlari tomonidan belgilangan tartibda, yuridik shaxslarning davlat reestriga yangidan kiritilgan yuridik shaxslardir.

Kichik korxona va mikrofirmalar – O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2016- yil 24- avgustdagagi "Iqtisodiy faoliyat turlarini tasniflashning xalqaro tizimiga o'tish chora-tadbirlari to'g'risida" 275- son qarorining 1- ilovasiga muvofiq, kichik tadbirkorlik subyektlariga ajratiladi.

Korxonalar va tashkilotlarning yagona davlat registri



Tashqi foydalanuvchilar, bevosita Davlat statistika qo'mitasining www.stat.uz rasmiy saytida real vaqt rejimida, so'ralayotgan yuridik shaxsning (STIR) kodini kiritib, axborotlarni bepul olishlari mumkinligi belgilab qo'yilgan.

Statistik registrlarni yuritish bo'limi
Tel.: 61 224-92-09